

BARCHASI SHU YERDAN UA SHU ONDAN BOSHLANADI

# TA'LIM ZIYOSI

UNIVERSITET  
GAZETASI

3-son  
Gazeta ichida gazeta

## AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGI

Davlatimiz rahbarining tegishli qarori asosida buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat hamda san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligi respublikamiz bo'ylab keng nishonlanmoqda. Ushbu muhim sana doirasida Chirchiq davlat pedagogika universitetida ham qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yuqori saviyada tashkil etilmoqda.



Xususan, Temuriylar davriga oid yozma manbalar asosida ilmiy seminarlar, turli treninglar, mahorat darslari, tanlovlar hamda intellektual musobaqalar o'tkazilmoqda. Shu bilan birga, talabavoshlarning tarixiy bilimlarini boyitish maqsadida Amir Temur merosi bilan bevosita bog'liq bo'lgan shaharlar va muzeylarga ekskursiyalar uyushtirilayotgani alohida e'tiborga molikdir. Universitet professor-o'qituvchilari va olimlari esa xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etib, Sohibqiron merosini chuqur o'rganish va targ'ib etishga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Kuni kecha universitetda "Amir Temur – Ikkinchi Renessans homiysi" mavzusida badiiy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda universitet rektori G'ofurjon Muxamedov, O'zbekiston Xalq artisti Tesha Mo'minov, Turon fanlar akademiyasi prezidenti Haydarbek Bobobekov, Temuriylar tarixi davlat muzeyi xodimi Saidbahrom Azizov, Qurulqildagi qo'shinlar instituti podpolkovnigi Nodirbek Xoliqov, shuningdek, professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabavoshlar ishtirok etdi.

Tadbir davomida so'zga chiqqan olimlar tomonidan Sohibqiron Amir Temurning boy tarixiy merosi, uning jahon



sivilizatsiyasidagi tutgan o'rni, davlat boshqaruvidagi yuksak salohiyati hamda bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan tamoyillari haqida atroflicha ma'lumotlar berildi. Xususan, uning tartib-intizomga bo'lgan yondashuvi, ilm-fan va adabiyot ahliga ko'rsatgan e'tibori, oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabati kabi jihatlar aniq tarixiy faktlar asosida yoritildi. Bu ma'ruzalar ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otib, talabalar tomonidan iliq kutib olindi.

O'zbekiston xalq artisti Tesha Mo'minov o'z chiqishida teatr va kino sahnasida Amir Temur obrazini yaratish jarayonidagi tajribalariga to'xtalib, Sohibqiron siyomosining ko'p qirrali jihatlarini ochib berdi. U Amir Temurning nafaqat buyuk sarkarda, balki adolatparvar davlat arbobi, yuksak tafakkur sohibi va ma'rifatparvar shaxs ekanini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, tadbir davomida yurtimizda ulug' ajdodlar merosini asrab-avaylash, chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar haqida ham batafsil ma'lumot berildi. Bu boradagi davlat siyosati yosh avlodni milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etayotgani qayd etildi.

Tadbir yakunida universitetning Tarix kafedrasida talabalari tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari hamda "Yosh Temurbeklar" harbiy-sport NTM o'quvchilarining ko'rgazmali chiqishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Shuningdek, Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan ko'rgazma ham tadbir ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida samarali hamkorlikni rivojlantirish, ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti rahbariyati bilan o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.

## YANGI KELISHUV – YAXSHI NATIJA

Mazkur kelishuv ikki murabbiylarning kasbiy tomon o'rtasida hamkorlikni salohiyatini oshirishga yangi bosqichga olib qaratilgan maxsus treninglar, chiqishga xizmat qilishi bilan seminarlar, mahorat ahamiyatidir. Unda harbiy-darslari hamda harbiy-vatanparvarlik ta'limi tizimini yanada takomillashtirish, amaliy mashg'ulotlarni ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. rivojlantirish, yoshlar ongida Ushbu hamkorlik mustahkam fuqarolik memorandumi yoshlarni pozitsiyasini shakllantirish har tomonlama barkamol, hamda innovatsion Vatanga sadoqatli, mustaqil ta'lim loyihalarini qo'llab-fikrlaydigan va zamonaviy quvvatlash kabi ustuvor bilimlarga ega shaxslar etib yo'nalishlar belgilab olindi. tarbiyalash yo'lidagi muhim Hamkorlik doirasida qadamdir. bo'lajak o'qituvchilar va

## KELAJAK KADRLARI QANDAY SHAKLLANMOQDA?

Dunyo jadal sur'atlar bilan raqamlashib borayotgan bir sharoitda, kelajak kadrlarini tayyorlash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt (AI) sohalarining rivojlanishi mehnat bozorida mutlaqo yangi talablarni yuzaga keltirdi. Endi faqat an'anaviy bilimlar emas, balki raqamli savodxonlik, dasturlash ko'nikmalari, ma'lumotlar bilan ishlash va algoritmik fikrlash kabi kompetensiyalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi ta'lim jarayoni bilim berish bilan cheklanib qolmayapti. Unda talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o'rgatish asosiy vazifalardan biriga aylangan. Xususan, sun'iy intellekt elementlari, dasturlash asoslari, robototexnika va raqamli platformalar bilan ishlash ko'nikmalari o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich kiritilmoqda.

Universitetimizda talabalarga sun'iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, informatika va IT yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga Python dasturlash tili, ma'lumotlar tahlili, mashinali o'qitish (Machine Learning) asoslari, algoritmizatsiya va dasturiy ishlanmalar yaratish ko'nikmalari zamon talablari asosida o'qitilmoqda.

Zamonaviy kompyuter xonalari, interaktiv platformalar va onlayn ta'lim muhitlari orqali talabalarga keng imkoniyatlar yaratilgan. Ayrim fanlar doirasida talabalar startap loyihalar ustida ishlash, dasturiy mahsulotlar yaratish va sun'iy intellekt elementlarini amaliyotda qo'llash imkoniga ham ega bo'lmoqda.

Bugungi talaba – ertangi mutaxassis. Shuning uchun ham ularni tayyorlashda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Masalan, Python kabi dasturlash tillarini o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish, oddiy algoritmizatsiya tuzish va avtomatlashtirish jarayonlarini tushunish kabi bilimlar yoshlarning kelajakda raqobatbardosh bo'lishida muhim o'rin tutadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari bugungi kunda deyarli barcha sohalariga kirib borgan. Shu sababli yosh avlodni ushbu texnologiyalarni faqat iste'mol qiluvchi emas, balki ularni yarata oladigan darajada tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bu ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi.

Shu bilan birga, kelajak kadrlarini shakllantirishda faqat texnik bilimlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Ularda tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash, kommunikatsiya ko'nikmalari, mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish ham muhimdir. Chunki texnologiya qanchalik rivojlanmasin, uni to'g'ri va samarali qo'llay olish zamon talabidir.

Kelajak kadrlari – bu raqamli texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan, sun'iy intellekt imkoniyatlarini tushunadigan, mustaqil fikrlaydigan va doimiy ravishda o'z ustida ishlaydigan shaxslardir. Ana shunday kadrlarni shakllantirish esa bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ravshonbek SULTANOV,  
Axborot texnologiyalari va sun'iy  
intellekt kafedrasida katta o'qituvchisi

## ZAMONAVIY TA'LIMNING ZARURATLARI

Universitet Kengashining navbatdagi kengaytirilgan yig'ilishida oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni keng joriy etish hamda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan dolzarb masalalar atroflicha muhokama qilindi.



Yig'ilish kun tartibidan o'rin olgan asosiy masalalardan biri – Turizm fakulteti hamda uning tarkibidagi kafedralarda yaratilgan ta'lim muhiti holatini tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Mazkur yo'nalishda fakultetda shakllantirilgan ilmiy-pedagogik salohiyat, professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari, zamonaviy o'quv-uslubiy

bazaning mavjudligi hamda talabalarga yaratilayotgan sharoitlar keng muhokama qilindi.

Shuningdek, "Kelajak o'qituvchisi konsepsiyasi" ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tibor markazida bo'ldi. Ushbu konsepsiya asosida pedagog kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, amaliy



ko'nikmalarni rivojlantirish, tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodikalar joriy etilayotgani qayd etildi.

Yig'ilish davomida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik rivojlanish dasturi doirasida sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalalari ham muhokama qilindi.

Shu bilan birga, fakultetda yaratilgan innovatsion o'quv muhitining samaradorligi, zamonaviy

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda raqamli platformalar asosida o'qitish tizimini yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida samarali muloqot va interaktiv faoliyatni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga talabalarni keng jalb etish, ularning mustaqil fikrlash va ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlandi.

...Hayot bor ekan,  
o'qituvchilik kasbi o'zining  
ma'no-mazmuni va  
olijanobligini, ahamiyati  
va hurmatini hech qachon  
yo'qotmaydi.

Sh.MIRZIYOYEV

## QALAMI QAYRALGAN USTOZ



**Mamlakatimizda inson qadri, ayniqsa, ta'lim sifati va pedagoglarning jamiyatdagi o'rni yuksak darajada e'tirof etilmoqda. Ta'lim tizimini rivojlantirish, o'qituvchi va murabbiylarning nufuzini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar har bir pedagog qalbida mas'uliyat va faxr tuyg'usini yanada mustahkamlamoqda. Davlatimiz rahbarining o'qituvchilar mehnatini yuksak qadrlab bildirgan fikrlari esa bu sharafli kasb egalariga berilgan yuksak e'tibor va ishonchning yorqin ifodasidir.**

Haqiqatan ham, jamiyatda fidokorona mehnat qilayotgan, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga bor kuch va salohiyatini baxsh etayotgan insonlar ko'p. Ular har bir jamoada, har bir mahallada bor. Afsuski, ba'zan biz ularning mehnatini yetarlicha qadrlay olmaymiz, kundalik hayot shiddatida ularning fidoyiligini sezmay qolamiz. Aslida, bunday insonlar jamiyatning eng katta boyligidir.

Bizning jamoamizda ham ana shunday e'tirofga munosib ustozlar talaygina. Shulardan biri – ajoyib inson, xalq ta'limi a'lochisi, hurmatli ustoz Nafisa Raxmonovadir.

Nafisa opa – oqila ayol, suyuqlik yor, mehribon ona va qaynona, shu bilan birga, dono va talabchan murabbiy. Ularning shaxsiyati va fazilatlari shu qadar boyki, qaysi mavzuda murojaat qilmang, har doim samimiy maslahat va yordam topasiz. Nafisa opa nafaqat tajribali pedagog, balki yosh o'qituvchilar uchun chinakam ustozdir. Ular tomonidan yaratilgan bir nechta uslubiy qo'llanmalar, dars o'tishning samarali metodlari bo'yicha o'tkazib kelinayotgan seminarlar ko'plab pedagoglar uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, Nafisa opa ijodkor hamdir. Ular shoira va tarjimon sifatida ham o'z iste'dodlarini namoyon etib kelmoqda. O'z his-tuyg'ularini she'rlariga jo etadi, turk tilidan o'zbek tiliga va aksincha, o'zbek tilidan turk tiliga badiiy asarlarni mohirlik bilan tarjima qiladi.

Bu insonni ko'plab chirchiqliklar yaxshi taniydi va chuqur hurmat qiladi. Nafisa opa kamtarligi, xushmuomalaligi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat jamoamiz xotin-qizlari, balki universitetimiz talaba qizlari uchun ham ibrat bo'la oladigan haqiqiy o'zbek ayolidir.

Nafisa opaning hayot yo'li yanada ibratli va ta'sirli. Tug'ma yurak xastaligi bilan dunyoga

kelgan, ikki marotaba yurak operatsiyasini boshdan kechirgan bu insonning irodasi hayot sinovlari qarshisida yanada chiniqqan. Qo'l-oyoqlaridagi og'riqlar sabab harakat qilish qiyinlashgan paytlarda ham u o'z kasbiga sadoqatini yo'qotmadi. Aksincha, har bir darsni, har bir auditoriyaga kirishni o'zining kichik g'alabasi sifatida qabul qildi.

**"Men auditoriyaga kirib, doskaga o'z qo'lim bilan yangi mavzuni yoza olsam, bu men uchun tuzalmas kasallik ustidan qozongan kichik g'alabamdur",** – deya kulib qo'yadilar.

Nogironligiga qaramay, hech qachon ortiqcha e'tibor yoki imtiyoz talab qilmagan, aksincha, sog'lom insonlar bilan teng mehnat qilgan bu ustozni yuksak ma'naviyat va jasorat sohiblari qatoriga qo'shimg keladi. Ularning hayotga,

kasbga va insoniylikka bo'lgan munosabati har qanday kishiga ibrat bo'la oladi.

Nafisa opaning yaqinlari – turmush o'rtog'i va farzandlari ularni asrash, sog'lig'ini o'ylab dam olishga undaganlarida ham ular: "Imkonim boricha yoshlarga bilim berishdan to'xtamayman, kasbim – mening hayotim mazmuni" deya javob beradilar.

Ustozning yana bir hikmatli so'zi pedagoglar uchun hayotiy shior bo'la oladi:

**"Bilimini o'z o'quvchisidan ayamagan ustoz – haqiqiy ustoz. Bilimini qizg'anadigan odam esa boyligini muhtojga ravo ko'rmaydigan xasis bilan barobardir".**

Universitetda faoliyat boshlagan ilk kunlaridanoq Nafisa opa bu dargohni o'zining ikkinchi hayoti sifatida qabul qildi. "Go'yo ikkinchi umri yashayotgandekman", – deydilar ko'zlari quvonib. Izlanish, maqola yozish, ilmiy tadqiqotlar bilan o'tgan har bir kuni ularga haqiqiy ma'naviy zavq bag'ishlaydi.

Bugungi kunda Nafisa opa nafaqada bo'lishlariga qaramay, ijodan to'xtagan yo'q. Ular tomonidan turk yozuvchisi Na'miq Kamolning "Jaloliddin Xorazmshoh" dramasi o'zbek tiliga tarjima qilinib, "Jahon adabiyoti durdonalari" 100 tomligiga kiritildi. Shuningdek, "Ona tili va adabiyot ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi" nomli uslubiy qo'llanma yaratildi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga bag'ishlangan "Tarhi toza doston haqida o'ylar" nomli adabiy monografiya ham ustozning ilmiy merosida alohida o'rin tutadi. Ularning maqolalari muntazam ravishda matbuotda e'lon qilinib kelmoqda.

Nafisa opaning orzu-intilishlari hamon yuksak. Ularning ijodiy izlanishlari, ilmiy faoliyati hali ko'plab yutuqlarga boy bo'lishiga ishonchim komil. Fidoyi ustozning keyingi hayot yo'li, ijodiy va ilmiy faoliyatiga ulkan zafarlar tilab qolamiz.

Yurtimizda Nafisa opa kabi jonkuyar, ma'rifat tarqatuvchi, qalblarga ziyo ulashuvchi ustozlar safi yanada kengayaversin!

Mulohazalarim yakunida Nafisa Raxmonovaning ijodidan bir she'rni e'tiboringizga havola qilishni joiz deb bildim.

**Qachon kelganingni sezmay qolibman,  
Sovuq nafasingdan titradi yurak.  
Sochimdagi qirov tashrif qog'ozing,  
Ekanin anglamay yashayman halak.**

**O'quvchi daftarin eslatar umrim,  
Ayrim varaqlari yirtib tashlangan.  
Ularning hisobin mendan so'rama,  
Men kuygan, men yongan gulxanlar  
so'ngan.**

**Muhabbat, xiyonat, nafrat, nadomat...  
To'rt so'zga qul bo'lib yashamoq og'ir,  
Qolgan varaqlarni o'qiylik, kelgin,  
Sarlavhasi – "Umid. Yaxshilik. Mehr."**

**Ko'ngil qo'rg'ur sira qarimas ekan,  
Ilhom parisiday yozib tashlabdi,  
"Keksalik" deb ismingni oxirgi betga,  
Yozay desam, qara, joy ham qolmabdi.  
Qachon kelganingni sezmay qolibman...**

**Gulnora NORQO'ZIYEVA,  
Rus tili va ta'lim metodikasi kafedrasida katta  
o'qituvchisi**

**Ushbu qo'shsahifa  
Chirchiq davlat pedagogika universitetining  
Axborot xizmati  
tomonidan tayyorlandi.**

### TAVSIYA ETILADI

**Maxsus pedagogika kafedrasida  
pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori  
Kobilova Shaxnoza  
Xudayshukurovnaning "Biologik  
faol nuqtali massaj qilish-  
reflektor ta'siri" mavzusida  
ochiq ma'ruzasi 2026-yil  
21-aprel kuni,  
1-bino, 122-auditoriyada,  
soat 10:30 da bo'lib o'tadi.  
Murojaat uchun telefon:  
+998(97) 548-50-11**



**Maxsus pedagogika kafedrasida  
p.f.f.d. (PhD)  
Pulatova Dilfuza  
Azamkulovnaning  
"Dislaliya"  
mavzusida ochiq ma'ruzasi  
2026-yil 27-aprel kuni,  
1-bino, 322-auditoriyada,  
soat 10:30 da bo'lib o'tadi.  
Murojaat uchun telefon:  
+998(99)-830-78-23**



**Maxsus pedagogika kafedrasida  
p.f.f.d. (PhD)  
Ishmatova Ozodaxon  
Sirodjoynaning  
"Классификация наруше-  
ний речи"  
mavzusida ochiq ma'ruzasi  
2026-yil 17-aprel kuni,  
1-bino, 322-auditoriyada,  
soat 15:20 da bo'lib o'tadi.  
Murojaat uchun telefon:  
+998(97) 548-50-11**



**Maxsus pedagogika kafedrasida  
p.f.f.d. (PhD)  
Egamderdiyeva Nigora  
Azizovna  
"Rivojlanishida mujassam  
nuqsonli bolalar guruhlarini"  
mavzusida ochiq ma'ruzasi  
2026-yil 10-aprel kuni,  
1-bino, 122-auditoriyada,  
soat 9:00 da bo'lib o'tadi.  
Murojaat uchun telefon: :  
+998(97) 548-50-11**



**Maxsus pedagogika kafedrasida  
p.f.f.d. (PhD)  
Xusnuddinova Zulayho  
Hamidullayevnaning  
"Ko'zi ojiz bolalarda shahar  
haqida tasavvurlarni  
shakllantirish usullari"  
mavzusidagi ochiq ma'ruzasi  
2026-yil 14-aprel kuni,  
1-bino, 119-auditoriyada,  
soat 10:30 da bo'lib o'tadi.  
Murojaat uchun telefon:  
+998(97) 548-50-11**

